

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari  
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
<b>Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.</b>	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ .....	21
<b>Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна</b>	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
<b>Karayev Payzillaxon Yusufxonovich</b>	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
<b>Xakimov Zafar Ibragimovich</b>	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI .....	38
<b>Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi</b>	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
<b>Igitov Jurabek Kuzibekovich</b>	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА .....	50
<b>Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПАЕНС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	56
<b>Халтурдиев Айтмурат Маратович</b>	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI .....	64
<b>Saatova Lolaxon Ergashevna</b>	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI .....	71
<b>Pulatov Abdullo</b>	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
<b>Axmedov Zafarjon Zokirjon</b>	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ .....	80
<b>Ташпулатов Дильмурад Рустамович</b>	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA .....	92
<b>Atamatov Abdusalil Salomovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR .....	97
<b>Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich</b>	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH .....	103
<b>Raximova Moxigul Isroiljonovna</b>	
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI .....	107
<b>Davitova Shaxzoda Doniyor qizi</b>	



# O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

**Davitova Shaxzoda Doniyor qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

3-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: obitovashahzoda1997@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) o‘rni va ahamiyati tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Xalqaro investitsiya oqimlarining zamonaviy tendensiyalari, shuningdek, mamlakatda amalga oshirilayotgan institutsional va iqtisodiy islohotlarning investitsiya jalb qilish jarayoniga ta‘siri ilmiy asoslangan tarzda yoritilgan. Tadqiqotda TTXIni jalb qilishning ustuvor yo‘nalishlari — sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan klasterlar tashkil etish, investitsiya infratuzilmasini takomillashtirish hamda investorlar uchun huquqiy kafolatlarni kuchaytirish kabi omillar alohida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish uchun institutsional barqarorlik, soliq yukini optimallashtirish, raqobatdosh investitsiya muhitini yaratish va davlat–xususiy sektor hamkorligini kengaytirish muhim omil ekani aniqlangan. Maqola yakunida mamlakatga TTXI oqimini yanada rag‘batlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, investitsiya muhiti, iqtisodiy o‘sish, institutsional islohotlar, investitsiyaviy jozibadorlik, iqtisodiy modernizatsiya, xalqaro kapital oqimi, texnologik transfer, iqtisodiy raqobatbardoshlik.

**Abstract.** This article analyzes the role and significance of foreign direct investment (FDI) in the economic development of Uzbekistan based on a systemic approach. It examines modern trends in international investment flows, as well as the impact of ongoing institutional and economic reforms on the investment attraction process. The study highlights key priority areas for attracting FDI, including the expansion of industrial cooperation, development of high-tech industries, establishment of export-oriented clusters, improvement of investment infrastructure, and strengthening of legal guarantees for investors. The findings indicate that enhancing Uzbekistan’s investment attractiveness requires institutional stability, optimization of the tax burden, creation of a competitive investment environment, and expansion of public–private partnerships. The article concludes with scientifically grounded recommendations to further stimulate FDI inflows into the country.

**Keywords:** foreign direct investment, investment environment, economic growth, institutional reforms, investment attractiveness, economic modernization, international capital flows, technology transfer, economic competitiveness.

**Аннотация.** В данной статье на основе системного подхода проанализированы роль и значение прямых иностранных инвестиций (ПИИ) в экономическом развитии Узбекистана. Освещены современные тенденции международных инвестиционных потоков, а также влияние институциональных и экономических реформ, проводимых в стране, на процесс привлечения инвестиций. В исследовании подробно рассмотрены приоритетные направления привлечения ПИИ, включая расширение промышленной кооперации, развитие высокотехнологичных производств, создание экспортно-ориентированных кластеров, совершенствование инвестиционной инфраструктуры и усиление правовых гарантий для инвесторов. По результатам исследования установлено, что повышение инвестиционной привлекательности Узбекистана требует институциональной стабильности, оптимизации налоговой нагрузки, формирования конкурентной инвестиционной среды и расширения государственно-частного партнёрства. В заключение предложены научно обоснованные рекомендации по дальнейшему стимулированию притока ПИИ в страну.

**Ключевые слова:** прямые иностранные инвестиции, инвестиционная среда, экономический рост, институциональные реформы, инвестиционная привлекательность, экономическая модернизация, международные потоки капитала, технологический трансфер, экономическая конкурентоспособность.



## KIRISH

Globalashuv jarayonlari jadallashgan, xalqaro kapital harakati keskin raqobat sharoitida kechayotgan bugungi davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni (TTXI) jalb qilish mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi, texnologik yangilanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omilga aylanmoqda. O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda izchil liberallashtirish, biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash, davlatning iqtisodiyotdagi ulushini qisqartirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirmoqda. Ushbu jarayonlar TTXI oqimini ko'paytirish, xalqaro investorlarga qulay va barqaror muhit yaratishning ustuvorligini yanada oshirmoqda.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish strategiyasining markazida iqtisodiyotning real sektori, yuqori qo'shilgan qiymatga ega sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish kabi yo'nalishlar turadi. Xususan, energetika, kimyo, elektrotexnika, qishloq xo'jaligi, transport-logistika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda turizm kabi tarmoqlarda investitsion potensialni kengaytirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, xalqaro investorlarga qulay huquqiy, institutsional va fiskal sharoitlar yaratish, investitsiya jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish ham investitsiya siyosatining asosiy yo'nalishlaridan sanaladi. O'zbekistonning xalqaro reytinglar va indekslardagi pozitsiyalarini yaxshilash, hududlarda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish, investitsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish ham mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolada O'zbekiston uchun TTXInı jalb qilishning eng dolzarb va strategik ustuvor yo'nalishlari tahlil qilinadi, mavjud imkoniyatlar va cheklovlar o'rganiladi, shuningdek, investitsiya siyosatini yanada samarali amalga oshirish bo'yicha taklif va xulosalar shakllantiriladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ni jalb qilish masalasi iqtisodiy rivojlanishning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ko'plab ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Xalqaro iqtisodiyot nazariyalarida, xususan John Dunning tomonidan ishlab chiqilgan "Eklektik paradigma" (OLI modeli) xorijiy kapital oqimining hudud tanlashida ustuvor bo'ladigan omillar kompleksini tushuntirib beradi. Ushbu yondashuvga ko'ra, investitsiya oqimi mamlakatning joylashuv afzalliklari, resurs salohiyati, huquqiy-institutsional muhitning sifatiga bevosita bog'liq (Dunning, 1988). Mazkur nazariya O'zbekiston kabi transformatsiya jarayonini boshdan o'tkazayotgan davlatlar uchun investitsion muhitni takomillashtirishning zarurligini ilmiy asoslaydi.

Xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda TTXI oqimini belgilovchi asosiy omillar qatoriga makroiqtisodiy barqarorlik, qulay biznes muhiti, rivojlangan logistika va infratuzilma, shuningdek, investorlar uchun aniq kafolatlar va minimal siyosiy risklar kiradi. Masalan, Elizabeth Asiedu [3] tomonidan amalga oshirilgan tahlillarda davlat boshqaruvidagi samaradorlik, institutsional sifat va eksportni rag'batlantiruvchi siyosat xorijiy kapital oqimini kuchaytiruvchi muhim komponentlar sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Eduardo Borensztein va hammualliflarining [4] tadqiqot natijalari TTXI oddiy kapital qo'yilmalaridan farqli ravishda texnologiya transferi, ilg'or boshqaruv tajribasi va yuqori unumdorlikka ega ishlab chiqarish usullarini olib kirishi sababli iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shishini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ham xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini milliy iqtisodiyot sharoitida chuqur o'rganishga qaratilgan. N. Haydarov [7], J. Hoshimov [8], A. Oblamurodov [9] kabi tadqiqotchilar investitsiya siyosatining institutsional bazasini modernizatsiya qilish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish, maxsus iqtisodiy zonalarining samaradorligini oshirish va preferensial rejimlarning investitsion faollikka ta'sirini ilmiy tahlil qilganlar. Ularning ishlari O'zbekistonda iqtisodiy liberallashtirish jarayonlari, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, investitsion risklarni pasaytirish mexanizmlarining shakllanishi kabi jihatlar TTXI oqimini rag'batlantirayotganini ta'kidlaydi.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlar: World Bank, International Monetary Fund, UNCTAD, OECD tomonidan e'lon qilinayotgan yillik hisobotlar ham O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy transformatsiyalar natijasida investitsion muhitning yaxshilanib borayotganini ko'rsatadi. UNCTAD tomonidan chop etiladigan "World Investment Report"da [10] mamlakatning islohotlarga sadoqati, tartib-taomillarni soddalashtirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash borasidagi jarayonlar TTXI kiritish bo'yicha ijobiy omillar sifatida baholanadi.

Umumlashtirilgan ilmiy adabiyotlar TTXI jalb etishning hal qiluvchi omillari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: barqaror makroiqtisodiy siyosat, institutsional muhitning ishonchligi, soliq va bojxona imtiyozlari tizimining shaffofligi, infratuzilmaning rivojlanganligi hamda investorlarga qulay, prognoz qilinadigan sharoit yaratilishi. Mazkur nazariy va empirik tadqiqotlar O'zbekistonning investitsion siyosatini takomillashtirish, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash va xorijiy kapital oqimini kengaytirish bo'yicha ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlari, ularning ustuvor yo'nalishlari va mavjud cheklovlarini aniqlash maqsad qilingan. Mazkur maqsadga erishish uchun turli ilmiy-uslubiy yondashuvlar majmui qo'llanildi. Metodologiya nazariy tahlil, empirik o'rganish, statistik ishlov berish va taqqoslash usullarining uyg'unlashuviga asoslanadi.

Tadqiqotning nazariy bazasi xalqaro investitsiyalar bo'yicha ilg'or ilmiy yondashuvlar — John Dunningning "Ektektik paradigma" (OLI modeli), kapital oqimlari nazariyasi, innovatsion taraqqiyotga asoslangan investitsiya modeli, shuningdek, rivojlanayotgan davlatlar uchun TTXI determinantlarini tahlil qiluvchi ilmiy manbalarga tayanadi. Nazariy konsepsiyalar yordamida TTXI jalb etishning fundamental omillari, investorlarning qaror qabul qilish jarayonida ustuvorlik kasb etuvchi makro va mikro omillar tizimli tahlil qilindi.

O'zbekistonning investitsiya siyosati, tegishli qonunlar, hukumat qarorlari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari va investorlarga taqdim etilayotgan preferensiyalar huquqiy nuqta nazardan o'rganildi. Bu yondashuv TTXI uchun yaratilayotgan tartib-taomillarni xalqaro standartlar bilan solishtirish imkonini berdi.


Investitsiya sohasiga oid milliy olimlar, tahlilchilar va xalqaro ekspertlarning fikrlari, ilmiy maqolalari hamda analitik sharhlari o'rganilib, mavjud muammolar va takliflar umumlashtirildi. Bu usul real investitsiya amaliyotiga yaqin xulosalar olishga yordam berdi. Yuqoridagi metodlar asosida olingan natijalar sintez qilinib, O'zbekiston uchun TTXI jalb etishning ustuvor yo'nalishlari, institutsional takomillashtirish choralari va investitsion siyosatni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) zamonaviy xalqaro kapital harakatining asosiy tarkibiy bo'g'ini sifatida milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishida muhim determinantlardan biri hisoblanadi. TTXI iqtisodiy tizimning investitsiyaviy faolligini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, texnologik transforni jadallashtirish hamda mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratish orqali iqtisodiy o'sish jarayoniga ko'p qirrali ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro tajriba shuni tasdiqlaydiki, xorijiy kapital kirib kelishi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiradi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va shu tariqa milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu sababli, TTXI iqtisodiy modernizatsiya va tarkibiy islohotlarning eng muhim katalizatorlaridan biri sifatida ilmiy adabiyotlarda alohida ahamiyat kasb etadi [11].

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda moliyalashtirish shartlari hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Xususan, kredit resurslarining narxi va muddati investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'ladi. Kapital talab qiluvchi, uzoq qaytish davriga ega bo'lgan loyihalar uchun barqaror va arzon moliyaviy resurslarning mavjudligi investitsiya faolligining muhim sharti hisoblanadi. Shu sababli, moliya bozorida mavjud kredit shartlarining tahlili to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini cheklovchi omillarni aniqlash nuqta nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur grafik 2023–2025-yillar davomida kredit foiz stavkalari va kredit muddati o'rtasidagi nisbatni aks ettirib, moliyalashtirish mexanizmlaridagi tizimli nomutanosibliklarni ochib berishga xizmat qiladi.



1-rasm. Moliyalashtirishdagi tizimli muammolar: qimmat va qisqa muddatli kreditlarning investitsiyalarga ta'siri<sup>1</sup>

1 Muallif tomonidan ishlangan

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2023-yilda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kredit foiz stavkalari yuqori darajada shakllangan bo'lib, kreditlarning o'rtacha muddati esa qisqa bo'lgan. Ushbu holat investorlar uchun moliyaviy xarajatlarning ortishiga va investitsiya risklarining kuchayishiga olib kelgan. Natijada uzoq muddatda daromad keltiruvchi loyihalarni moliyalashtirish iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmagan holatga tushib qolgan.

2024–2025-yillarda kredit foiz stavkalarining nisbatan pasayishi kuzatilgan bo'lsa-da, ularning darajasi hali ham yuqori bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, kredit muddatining 2–3 yil bilan cheklanganligi kapital talab qiluvchi investitsiya loyihalari uchun yetarli bo'lmagan sharoitni yuzaga keltirmoqda. Grafikda kredit foiz stavkalari va kredit muddati o'rtasidagi nomutanosiblik yaqqol ko'rinib, moliyalashtirish tizimi uzoq muddatli investitsiya ehtiyojlariga moslashmaganini ko'rsatadi.

Mazkur vaziyat xorijiy investorlarning investitsiya strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning qisqa muddatli yoki past xavfli loyihalarga ustuvorlik berishiga sabab bo'lmoqda. Natijada iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi yetarli darajada shakllanmayapti.

Grafik tahlili shuni ko'rsatadiki, 2023–2025-yillar davomida kredit foiz stavkalarining yuqori darajada saqlanib qolishi va kredit muddatlarining qisqa bo'lishi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda moliyalashtirish omilining asosiy cheklovchi jihatlaridan biri bo'lib qolmoqda. Mazkur nomutanosiblik uzoq muddatli, innovatsion va kapital talab qiluvchi loyihalarning amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bois aks ettirilgan ma'lumotlar moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatib, investitsiya muhitini yaxshilashda moliyaviy shart-sharoitlarni tahlil qilish muhimligini asoslab beradi. Ushbu grafik keyingi bosqichda moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun muhim empirik asos bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayonlarining turli vazirliklar, mahalliy hokimiyat organlari va tijorat banklari o'rtasida parchalanganligi xorijiy investorlar uchun qo'shimcha institutsional yuklamani yuzaga keltirgan. Bitta loyiha doirasida moliyalashtirish, kafolatlar, subsidiyalar va ruxsatnomalarni olish uchun o'nlab idoralar bilan muvofiqlashtirish zarurati investitsiya jarayonlarini 8–12 oyga, ayrim hollarda esa undan ham uzoq muddatga cho'zib yuborgan [12].

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish mamlakat iqtisodiyotida qaysi sohalar xorijiy kapital uchun nisbatan jozibador, qaysilari esa institutsional va moliyaviy cheklovlar ta'sirida yetarli darajada rivojlanmayotganini aniqlash imkonini beradi. Iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish nuqtai nazaridan agroklastlar va infratuzilma loyihalari strategik ahamiyatga ega bo'lib, ular eksportni kengaytirish, bandlikni oshirish va hududiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu sohalarga yo'naltirilayotgan TTXI ulushi ularning iqtisodiy salohiyatiga nisbatan yetarli emasligi kuzatilmogda.

Mazkur grafik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida agroklastlar va infratuzilma loyihalarining ulushini boshqa sohalar bilan taqqoslagan holda aks ettirib, mavjud muammoning vizual ifodasini beradi.



2-rasm. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida agroklastlar va infratuzilma loyihalarining cheklangan ulushi<sup>2</sup>

Grafik ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, agroklastlar va infratuzilma loyihalari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibida nisbatan past ulushni egallaydi. Ushbu holat mazkur yo'nalishlarning yuqori kapital

2 Muallif tomonidan ishlangan



talabiga ega ekanligi bilan izohlanadi, chunki agroklastlar va infratuzilma loyihalari katta hajmdagi boshlang'ich investitsiyalarni hamda uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishni talab etadi. Natijada xorijiy investorlar qisqa muddatli va kamroq tavakkalchilikka ega bo'lgan boshqa sohalarga ustuvorlik berishga moyil bo'lmoqda.

Bundan tashqari, agroklastlar va infratuzilma loyihalariga xos bo'lgan makroiqtisodiy, institutsional va tabiiy xavflar investitsiya qarorlarini murakkablashtiradi. Qaytish muddatining uzoqligi, valyuta va inflyatsiya xavflari, shuningdek, huquqiy va boshqaruv mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi ushbu sohalarda TTXI oqimining cheklanishiga olib kelmoqda. Grafikda "boshqa sohalarda" ulushining yuqori ekanligi aynan shu nomutanosiblikni yaqqol namoyon etadi.

Shu tariqa, grafik nafaqat investitsiyalar hajmidagi farqni, balki investitsiya muhitidagi tarkibiy muammolarni ham aks ettiradi. Agroklastlar va infratuzilma loyihalari iqtisodiyot uchun muhim bo'lishiga qaramay, mavjud sharoitlarda xorijiy investorlar tomonidan yetarli darajada moliyalashtirilmayapti.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi, strukturaviy jihatdan modernizatsiyalashuvi va global raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro tajriba va milliy amaliyotlarning qiyosiy tahlili shuni tasdiqlaydiki, TTXI oqimi faqat moliyaviy resurslar kirib kelishini emas, balki ilg'or texnologiyalar, boshqaruv tajribasi, innovatsion yechimlar va yuqori malakali inson kapitalining shakllanishini ham jadallashtiradi. Aynan shu omillar iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish, eksport salohiyatini kengaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini oshirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonning investitsiya siyosati izchil takomillashib borayotganini, xususan, tartib-taomillarni soddalashtirish, soliq va bojxona imtiyozlarini optimallashtirish, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish hamda investorlarga qo'shimcha huquqiy kafolatlar yaratish TTXI jalb qilish samaradorligini sezilarli darajada oshirayotganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ayrim institutsional cheklovlar, byurokratik jarayonlar, infratuzilma bo'yicha kamchiliklar va investitsiya risklarining mavjudligi investitsiyaviy jozibadorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlangan.

Shu nuqtai nazardan, TTXI siyosatini yanada kuchaytirish uchun quyidagi ustuvor vazifalarga e'tibor qaratish zarur:

- institutsional islohotlarni chuqurlashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirish;
- maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini modernizatsiya qilish hamda investorlar bilan ishlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- sud-huquq tizimida investorlar huquqlarining ishonchli himoyasini ta'minlash;
- infratuzilma loyihalariga xususiy sektor ishtirokini kengaytirish;
- iqtisodiyotning yuqori texnologiyali tarmoqlarida TTXI uchun qo'shimcha rag'batlar yaratish.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha kompleks va tizimli yondashuv O'zbekistonning raqobatbardosh iqtisodiy modelini shakllantirish, xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish va barqaror o'sish trayektoriyasini ta'minlashda muhim strategik omil sifatida xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. Asiedu, E. (2002). On the determinants of foreign direct investment to developing countries. *World Development*.
4. Borensztein, E., De Gregorio, J., & Lee, J. (1998). How does foreign direct investment affect economic growth? *Journal of International Economics*.
5. Dunning, J. H. (1988). The eclectic paradigm of international production. *Journal of International Business Studies*.
6. Farole, T. (2011). *Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience*. — World Bank.
7. Haydarov, N. (2019). O'zbekistonning investitsiya muhitini takomillashtirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar.
8. Hoshimov, J. (2020). Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning institutsional asoslari.
9. Oblamurodov, A. (2021). Investitsiya xavflarini boshqarish va ularning TTXI oqimiga ta'siri.
10. UNCTAD. (2020–2025). *World Investment Report*.
11. Knack, S., & Keefer, P. (1995). Institutions and economic performance: Cross-country tests using alternative institutional measures. *Economics & Politics*, 7(3), 207–227.
12. World Bank. *Global Investment Competitiveness Report*.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)